

2018 yil yanvar-may oylarida amalga oshirilgan qurilish ishlari


2018 yilning yanvar – may oyida Samarqand viloyatida 1124,7 mlrd. so’mlik qurilish montaj ishlari bajarilib, o’sish sur’ati o’tgan 2017 yilning shu davriga nisbatan 100,3 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish montaj ishlari hajmi 16,1 mlrd. so’mni tashkil etib, o’sish sur’ati 33,0 foizni tashkil qildi.



Jami qurilish ishlaringin hajmidan kichik qurilish tashkilotlari va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish montaj ishlari hajmi qurilish ishlaringin 52,6 foizini tashkil etdi. Kichik qurilish tashkilotlari va mikrofirmalar asosan sotish uchun mo’ljallangan uy-joylarni qurish, avtomobil yo’llarini ta’mirlash, yangi qurilish, rekonstruksiya, ijtimoiy soha ob’yeqtлari (mekteblar, maktabgacha ta’lim muassasalari), namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan va arzonlashtirilgan uy-joylar qurilishida o’z faoliyatlarini amalga oshirmoqda.

Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari



Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 1110,9 mlrd. so'mlik qurilish montaj ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 99,0 foizini tashkil qildi va ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning o'sish sur'atiga nisbatan 23,0 bandga oshdi. Mulkchilikning davlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 13,8 mlrd. so'mlik qurilish montaj ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish montaj ishlari hajmining 1,0 foizini tashkil qildi.



2018 yilning yanvar – may oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarida nodavlat mulkchilikda bino va inshootlar qurilishining ulushi 929,4 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 124,0 foizni tashkil qildi. Davlat mulkchiligidagi ulush esa, 1,2 mlrd. so'mni tashkil qilib, bu o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 7,0 foizni tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarida nodavlat mulkchilikdagi fuqarolik qurilish ob'yektlarining ulushi 121,7 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 115,0 foizni, davlat mulkchiligidagi ulush esa, 10,8 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 127,0 foizni tashkil qildi.

Shuningdek, ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining ulushi 59,8 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 144,0 foizni, davlat mulkchiligidagi ulush esa, 1,8 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 120,0 foizni tashkil qildi.